Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

Zarina Safarova – katta o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
E-mail: safarovazarina586@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0004-3203-566X

INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA INKLYUZIV TA’LIM KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy va o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan ingliz tili o‘qituvchilarining inklyuziv ta’limga oid kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi xorijiy tilni o‘qitish jarayonida maxsus ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan talabalarni samarali integratsiya qilish, ularning kommunikativ va akademik faolligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni aniqlashdan iborat. Maqolada differensial o‘qitish metodlari, Universal Design for Learning (UDL) tamoyillari, individual yondashuv hamda o‘qituvchilarning psixologik va pedagogik tayyorgarligi keng yoritilgan. Shuningdek, inklyuziv muhitda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar va moslashtirilgan didaktik vositalardan foydalanishning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv kompetensiya faqat metodik bilim va ko‘nikmalar bilan cheklanmay, balki o‘qituvchining ijtimoiy-etik mas’uliyati, tolerantligi, empatiyasi va kasbiy refleksiyasini ham qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, ingliz tili metodikasi, kasbiy kompetensiya, differensial yondashuv, UDL, maxsus ta’lim ehtiyojlari (MTE).

Zarina Safarova – senior teacher
Uzbekistan State World Languages University (Tashkent, Uzbekistan)

FORMATION OF INCLUSIVE EDUCATION COMPETENCIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing professional competencies related to inclusive education among English language teachers working in secondary and higher educational institutions. The main purpose of the study is to identify pedagogical mechanisms that ensure the effective integration of students with special educational needs into the foreign language learning process and enhance their communicative and academic engagement. The article discusses differentiated teaching methods, the principles of Universal Design for Learning (UDL), individualized approaches, as well as the psychological and pedagogical preparedness of teachers. In addition, the importance of using modern technologies and adapted didactic materials in teaching English within an inclusive educational environment is highlighted. The findings of the study demonstrate that inclusive competence includes not only methodological knowledge and teaching skills, but also social and ethical responsibility, tolerance, empathy, and professional reflection of teachers.

Keywords: inclusive education, English language teaching methodology, professional competence, differentiated approach, UDL, special educational needs (SEN).

Зарина Сафарова – старший преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков (Ташкент, Узбекистан)

ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ У УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье научно-теоретически и практически анализируются вопросы формирования и развития профессиональных компетенций учителей английского языка в области инклюзивного образования, работающих в системе высшего и среднего образования. Основная цель исследования заключается в определении педагогических механизмов, способствующих эффективной интеграции обучающихся с особыми образовательными потребностями в процесс обучения иностранному языку, а также повышению их коммуникативной и академической активности. В статье подробно рассматриваются методы дифференцированного обучения, принципы Universal Design for Learning (UDL), индивидуальный подход, а также психологическая и педагогическая подготовка преподавателей. Кроме того, раскрывается значение использования современных технологий и адаптированных дидактических средств при обучении английскому языку в инклюзивной образовательной среде. Результаты исследования показывают, что инклюзивная компетенция включает не только методические знания и навыки, но и социально-этическую ответственность, толерантность, эмпатию и профессиональную рефлексию преподавателя.

Ключевые слова: инклюзивное образование, методика преподавания английского языка, профессиональная компетенция, дифференцированный подход, UDL, особые образовательные потребности (ООП).

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy tendensiyalaridan biri - bu ta’limning demokratlashuvi va barcha uchun ochiqligidir. Inklyuziv ta’lim (fransuzcha “inklusiv” - o‘z ichiga oluvchi) bu har bir bolaning, uning jismoniy, intellektual, ijtimoiy, hissiy yoki boshqa xususiyatlaridan qat’I nazar, umumiy ta’lim jarayoniga jalb qilinishini anglatadi. Ingliz tili global muloqot tili sifatida barcha qatlam vakillari uchun teng imkoniyatlar yaratishi lozim. Biroq, ko‘plab ngliz tili o‘qituvchilari dars jarayonida maxsus ehtiyojli (eshitish, ko‘rish, nutqiy nuqsonlar yoki autism spektri) o‘quvchilar bilan ishlashda metodik qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, an’anaviy metodika ko‘pincha “o‘rtacha” o‘quvchiga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘rganishda o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan shaxslarni chetda qoldiradi. Shu bois, ingliz tili o‘qituvchilarida inklyuziv kompetensiyani shakllantirish tizimli yondashuvni talab yetadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan islohotlar barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyat yaratishni asosiy maqsad sifatida ilgari surmoqda. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim konsepsiyasining rivojlanishi natijasida jismoniy, psixologik yoki intellektual imkoniyatlari cheklangan bolalarni umumiy ta’lim jarayoniga jalb etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’lim nafaqat maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning ta’lim olish huquqini ta’minlaydi, balki jamiyatda tenglik, bag‘rikenglik va ijtimoiy hamjihatlikni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan ingliz tili o‘qituvchilarining inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ingliz tili boshqa fanlardan farqli ravishda kommunikativ xarakterga ega bo‘lib, unda tinglash, gapirish, yozish va o‘qish ko‘nikmalari parallel ravishda shakllantiriladi. Shu sababli maxsus ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida o‘qituvchi nafaqat metodik bilimlarga, balki psixologik va pedagogik tayyorgarlikka ham ega bo‘lishi lozim. Inklyuziv ta’lim muhiti o‘qituvchidan yuqori darajadagi moslashuvchanlikni, sabr-toqatni va individual yondashuvni talab qiladi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, inklyuziv kompetensiya pedagogning kasbiy mahorati bilan bir qatorda uning insoniy fazilatlari - empatiya, tolerantlik va ijtimoiy mas’uliyatini ham o‘z ichiga oladi (Jalolov, 2013).

Inklyuziv kompetensiya bir nechta muhim tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Avvalo, motivatsion-irodaviy komponent alohida ahamiyatga ega. Bu o‘qituvchining har qanday

o‘quvchini uning imkoniyatlari va ehtiyojlaridan qat’i nazar qabul qila olishga tayyorligini anglatadi. Ko‘plab o‘qituvchilar nazariy jihatdan inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlasalar-da, amaliyotda maxsus ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Buning asosiy sabablaridan biri pedagoglarning psixologik tayyorgarligi yetarli emasligidir. Chunki ayrim hollarda o‘qituvchi maxsus ehtiyojli o‘quvchini “muammo” sifatida qabul qiladi. Aslida esa inklyuziv pedagogika har bir bolaning individual imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Kognitiv komponent ham muhim o‘rin egallaydi. Bu o‘qituvchining maxsus pedagogika, yosh psixologiyasi va psixofiziologik rivojlanish bo‘yicha bilimlarini anglatadi. Ingliz tili darslarida autizm spektridagi bolalar, disleksiyaga ega o‘quvchilar yoki eshitishida nuqsoni bo‘lgan talabalar bilan ishlash uchun o‘qituvchi maxsus metodlarni bilishi zarur. Masalan, disleksiyaga ega o‘quvchilar uchun qisqa va sodda matnlar, katta shriftli materiallar hamda audio matnlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Eshitishida qiyinchilik bo‘lgan o‘quvchilar uchun esa subtitrli videolar va vizual ko‘rsatmalar foydali bo‘ladi (Irisqulov, 2013).

Bugungi kunda inklyuziv ta’limning eng samarali yondashuvlaridan biri sifatida Universal Design for Learning (UDL) modeli keng qo‘llanilmoqda. Ushbu model barcha o‘quvchilar uchun teng va qulay ta’lim muhiti yaratishni maqsad qiladi. UDL tamoyillariga ko‘ra, o‘qituvchi axborotni bir nechta shaklda taqdim etishi kerak. Masalan, yangi so‘zlarni o‘rgatishda faqat matndan foydalanish yetarli emas. O‘qituvchi rasmlar, audio yozuvlar, videolar, flesh-kartalar va real predmetlardan foydalanishi lozim. Bu usullar maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning darsni yaxshiroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Shuningdek, UDL o‘quvchilarning bilimni namoyish etish shakllarini ham diversifikatsiya qilishni tavsiya etadi. Ya’ni o‘quvchi bilimini faqat yozma nazorat orqali emas, balki loyiha, taqdimot, rasm yoki og‘zaki nutq orqali ham ko‘rsatishi mumkin bo‘lishi kerak. Tadqiqotlarga ko‘ra, moslashuvchan baholash tizimi o‘quvchilarning stress darajasini kamaytiradi va ularning darsdagi faolligini oshiradi (Irisqulov, 2013).

Inklyuziv sinflarda differensial yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Chunki barcha o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi va qabul qilish imkoniyatlari bir xil emas. Shu sababli o‘qituvchi topshiriqlarni o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishi kerak. “Scaffolding” strategiyasi bu borada samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu usulda murakkab grammatik yoki leksik mavzular kichik va oson o‘zlashtiriladigan bosqichlarga bo‘linadi. Masalan, ingliz tilidagi zamonlarni o‘rgatishda avval oddiy gaplar, keyinchalik esa murakkab konstruktsiyalar beriladi. Lev Vigotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi ham inklyuziv ta’limda katta ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘quvchi mustaqil bajara olmaydigan topshiriqlarni o‘qituvchi yoki tengdoshlar yordami orqali bajarishi mumkin (Vygotsky, 1978). Ingliz tili darslarida guruhli ishlash, juftlikda mashq bajarish va rolli o‘yinlar aynan shu nazariyaga asoslanadi. Bu usullar o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bilan bir qatorda ijtimoiy integratsiyani ham kuchaytiradi.

Xorijiy tilni o‘rganishda psixologik omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Ko‘plab o‘quvchilar ingliz tilida gapirishdan qo‘rqadi yoki xato qilishdan uyaladi. Inklyuziv sinflarda esa bu holat yanada kuchliroq namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli o‘qituvchi qo‘llab-quvvatlovchi va xavfsiz psixologik muhit yaratishi lozim. “Silent Period” tushunchasi ham shu jarayon bilan bog‘liq. Ayrim o‘quvchilar dastlabki bosqichda ko‘proq tinglashni afzal ko‘radi va gapirishga tayyor bo‘lmaydi. O‘qituvchi bunday holatda o‘quvchini majburlamasligi kerak, aks holda uning anxiety darajasi ortib ketadi.

Zamonaviy texnologiyalar ham inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Elektron platformalar, audio kitoblar, subtitrli videolar va interaktiv dasturlar maxsus ehtiyojli o‘quvchilarga katta yordam beradi. Ayniqsa, multimodal resurslar orqali axborotni turli shakllarda taqdim etish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Shu bilan birga, ingliz tili o‘qituvchilarining inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish

uchun malaka oshirish tizimini takomillashtirish zarur. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglar uchun inklyuziv pedagogika va maxsus psixologiya fanlarini chuqurlashtirib o‘qitish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, amaliy seminarlar va treninglar orqali o‘qituvchilarning real inklyuziv sinf sharoitida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

O‘qituvchining inklyuziv kompetensiyasi bir necha muhim komponentlardan tashkil topadi:

- Motivatsion-irodaviy komponent: O‘qituvchining har qanday o‘quvchini, uning imkoniyatlaridan qat’iy nazar, qabul qilishga tayyorligi;

- Kognitiv komponent: Turli xil psixofizik rivojlanish xususiyatlariga ega bolalarni o‘qitishning pedagogik va psixologik asoslarini bilish;

- Operatsion-texnologik komponent: Ingliz tili darslarida materialni turli darajalarda va shakllarda (vizual, audio, taktil) yetkazib berish mahorati.

Universal Design for Learning (Ta’limning universal dizayni) inklyuziv ta’limning asosi hisoblanadi. U uchta asosiy tamoyilga tayanadi (Nishonova, 2016): Birinchidan, axborotni taqdim etishning turli usullari. Masalan, yangi so‘zlarni o‘rgatishda o‘qituvchi faqat darslikdagi matn bilan cheklanmasdan, Flash-kartalar, video-lavhalar va real obyektlardan foydalanishi kerak. Bu, ayniqsa, ko‘rish yoki eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilar uchun juda muhimdir. Ikkinchidan, o‘zlashtirishni namoyish etishning turli usullari. O‘quvchi olingan bilimni faqat yozma test orqali emas, balki og‘zaki taqdimot, loyiha ishi yoki ijodiy rasm orqali ham ko‘rsatishi mumkin bo‘lishi kerak. “Inklyuzivlik - bu faqatgina sinf xonasida birga o‘tirish emas, balki har bir o‘quvchining o‘quv jarayonida mazmunli ishtirokini ta’minlashdir” (Madvaliev, 2014).

Ingliz tili darslarida “Scaffolding” (ko‘prik qurish) strategiyasi inklyuziv muhit uchun eng samarali usullardan biridir. Bu usul orqali murakkab grammatik mavzular kichik, oson o‘zlashtiriladigan qismlarga bo‘linadi. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarning “ZPD” (Yaqin rivojlanish zonasi) ni hisobga olishi lozim. Masalan, o‘qish (Reading) darsida bir guruh o‘quvchilar matnning asosiy g‘oyasini tushunish ustida ishlasa, kognitiv ehtiyojlari yuqoriroq bo‘lgan o‘quvchilar matndagi yashirin ma’nolarni tahlil qilishlari mumkin. Bu jarayonda o‘qituvchi “Individual Educational Plan” (IEP) asosida ish ko‘rishi maqsadga muvofiqdir.

Tashvishlanish darajasi (Anxiety) xorijiy tilni o‘rganishda asosiy to‘siqlardan biridir. Inklyuziv sinflarda bu ko‘rsatkich yuqoriroq bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi “Silent Period” (sukunat davri)ni hurmat qilishi va o‘quvchini muloqotga majburlamasdan, unga xavfsiz muhit yaratib berishi lozim. Pragmatik jihatdan, nutqiy aktlarni o‘rgatishda real hayotiy vaziyatlardan foydalanish, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili o‘qituvchilarida inklyuziv kompetensiyani shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim talablaridan biridir. Inklyuziv ta’lim faqat maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun emas, balki barcha o‘quvchilar uchun qulay va adolatli ta’lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli pedagoglar nafaqat metodik bilimlarga, balki insonparvarlik tamoyillariga ham tayangan holda faoliyat olib borishlari lozim. Inklyuziv kompetensiya o‘qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik madaniyati va ijtimoiy mas’uliyatining muhim ko‘rsatkichidir. Ingliz tili o‘qituvchilarida inklyuziv kompetensiyani shakllantirish - bu uzluksiz jarayon bo‘lib, u nafaqat malaka oshirish kurslarini, balki o‘qituvchining shaxsiy dunyoqarashini o‘zgartirishni ham talab etadi. Xulosa o‘rnida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: O‘qituvchilar uchun inklyuziv pedagogika va maxsus psixologiya bo‘yicha treninglar tashkil etish. Darsliklarni inklyuziv ehtiyojlarga moslashtirish (shriftlar hajmi, audio-tavsiflar, soddalashtirilgan instruksiyalar). Hamkorlikda o‘qitish (Co-teaching) modelini joriy etish, ya’ni ingliz tili o‘qituvchisi va maxsus pedagogning birgalikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish. Bizningcha, bu kabi muhim masalalarga yechim toppish kelgusida mazkur sohaga yetarlicha hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). *“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun* (O‘RQ-637-son).
2. Nishonova, S. X., & Amanova, N. T. (2016). *Maxsus pedagogika va maxsus psixologiya*. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Nurullaev, A., & Nishonova, S. (2017). *Logopediya*. Toshkent: Fan.
4. Madvaliev, A. (Ed.). (2004). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
5. Jalolov, J. J., & Irisqulov, M. T. (2013). *Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun ingliz tili o‘quv dasturi*. Xalq ta’limi, (4), 44 bet.
6. Irisqulov, A. T., Xan, S., & mualliflar jamoasi. (2013). *Kids’ English Class 1, 2, 3, 4: Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinflari uchun darslik-majmua*. Toshkent: O‘zbekiston.
7. Lev Vygotsky. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.